

**TA'LIMDA TENG IMKONIYATLAR PSIXOLOGIK MUHITINI
TA'MINLASH VA UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INKLYUZIV TA'LIMNI
RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASI.**

Musayeva Munisa Abdusalomovna

Navoiy viloyati Karmana tumanidagi

30-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

+998934602250

Annotatsiya

KIRISH: So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, aholining barcha qatlamlariga teng imkoniyatlar yaratish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu maqolada ta'lim tizimida teng imkoniyatlarni yaratish, umumta'lim maktablarda inklyuziv sinflarga ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda ta'limdagi innovatsiyalardan foydalanish, umumta'lim maktablarida differensial ta'lim asosida olib boriladigan dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar, dunyo mamlakatlari ta'lim tizimidagi tajribalar misolida ta'lim muassasalarida teng imkoniyatlarni yaratish bo'yicha taklif va tavsiyalar yoritilgan.

MAQSAD: zamonaviy ta'lim tizimida nogironligi bo'lgan bolalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj va alohida ta'limga ehtiyoji mavjud o'quvchilar uchun inklyuziv ta'limni joriy etish va rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, ular uchun teng imkoniyatlarni yaratish va ta'lim samamaradorligini oshirish.

MATERIALLAR VA METODLAR: maqolada metodlar sifatida produktiv faoliyatni tahlil qilish metodi, assotsiativ vositalar asosida darslarni tashkil etish, differensial yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim kabi yondashuvlardan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: ta'lim tizimida teng imkoniyatlarni yaratish, umumta'lim maktablarda inklyuziv sinflarga ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda samarali yondashuvlar va zamonaviy metod va vositalardan foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

XULOSA: inklyuziv ta'lim faqat nogironligi mavjud bolalar uchun emas, balki butun jamiyat uchun foydalidir. Yoshlarimizni barkamol avlod qilib voyaga yetkazish va iste'dodli yoshlarning o'z salohiyatini keng namoyon etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va inklyuziv jamiyatni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

KALIT SO`ZLAR: intellekt, salohiyat, differensial ta'lim, intellektual ta'lim, iqtidor, ijtimoiylashuv, inklyuziv ta'lim, segregatsion ta'lim, korreksiya.

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: В последние годы вопрос модернизации системы образования в нашей стране и создания равных возможностей для всех слоев населения стал одним из приоритетных направлений государственной политики. В данной статье рассматриваются вопросы создания равных возможностей в системе образования, использование образовательных инноваций в организации образовательного процесса в инклюзивных классах общеобразовательных школ, уроков и внеклассной деятельности на основе дифференцированного обучения в общеобразовательных школах, а также предложения и рекомендации по созданию равных возможностей в образовательных учреждениях, основанные на опыте систем образования стран мира.

ЦЕЛЬ: В современной системе образования актуальным является вопрос внедрения и развития инклюзивного образования для детей с ограниченными возможностями здоровья, учащихся, нуждающихся в социальной защите и особых условиях образования, создания для них равных возможностей и повышения эффективности образования.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В статье использованы метод анализа продуктивной деятельности, организация уроков с использованием ассоциативных инструментов, дифференцированный подход и личностно-ориентированное обучение.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: Разработаны предложения по созданию равных возможностей в системе образования, эффективным подходам к организации образовательного процесса в инклюзивных классах общеобразовательных школ, использованию современных методов и средств.

ВЫВОД: Инклюзивное образование приносит пользу не только детям с ограниченными возможностями здоровья, но и всему обществу. Оно играет важную роль в воспитании гармоничного поколения, создании условий для полного раскрытия потенциала талантливой молодежи и формировании инклюзивного общества. **КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** интеллект, потенциал, дифференцированное образование, интеллектуальное образование, талант, социализация, инклюзивное образование, сегрегированное образование, коррекция

Abstract

INTRODUCTION: In recent years, the issue of modernizing the education system in our country and creating equal opportunities for all segments of the population has become one of the priority areas of state policy. This article discusses the creation of equal opportunities in the education system, the use of educational innovations in organizing the educational process for inclusive classes in general education schools, lessons and extracurricular activities based on differentiated education in general education schools, and proposals and recommendations for creating equal opportunities in educational institutions based on the experiences of the education systems of countries around the world.

Inklyuziv ta'lim nogironligi bo'lgan yoki o'ziga xos ehtiyojlarga ega bolalarning sog'lom tengdoshlar bilan birga, ularning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, bir xil ta'lim muassasalarida o'qishlarini ta'minlash tizimidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Yoshlar bilan ishlash masalalari alohida e'tiborni talab qiladi. Biz mamlakatimizning istiqbolli yosh avlodimiz qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotga nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga xizmat qilishiga bog'liq ekanini hamisha yodda tutishimiz kerak. Bizning bugungi mehnatimizga qanday baho berilishi ham ana shunga bog'liq".

Juda ko'plab davlatlarda maxsus yordamga muhtoj bolalarni yuqori natijada kamol toptirishda keng imkoniyatlarni rivojlantirish hamda ijtimoiy moslashtirishni to'laligicha yo'lga qo'yish maqsadida umumta'lim maktablarida ta'lim berish ilmiy va amaliy davlat siyosati rejasiga kiritildi. "Ta'lim tizimi shunday bo'lishi keraki deb yozadi L.S.Vigotskiyning fikricha nuqsonli bolaning tarbiyalashning vazifasi boladagi nuqsonlarni kompensatsiya qilish va uning hayotga integratsiyasini ta'minlash deb xisoblaydi va buning uchun shunday ta'lim tizimini yaratish kerakki maxsus yordamga muxtoj bola o'qish jarayonida xar tomonlama rivojlansin. Ya'ni, L.S.Vigotskiy umumiy va maxsus ta'limni uyg'unlashtiradigan ta'lim tizimini tashkil etish maxsus yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim tizimida o'qitishni e'tirof etgan.[4,25]

Insonning faollik darajasiga ko'ra diqqatning 3 turini ajratish mumkin:

1. Ixtiyorsiz diqqat.
2. Ixtiyoriy diqqat.
3. Ixtiyoriydan so'ngi diqqat

Iqtidor – qaysidir qobiliyatning eng yuqori darajadagi rivojlanishidir. V.Yurkevich iqtidorning 3 asosiy turini farqlaydi, buni umumta'lim maktablarida hisobga olinishi lozim deb hisoblaydi:

- akademik -o'qishga aniq ko'rinib turgan qobiliyat, bu jarayonda o'qituvchi har bir bolaga juda e'tiborli bo'lib undagi qobiliyat uchqunlarini ko'ra bilishi va rivojlantirishi kerak.

- intellektual (dalillarni tahlil qilib, qiyoslab fikrlash qobiliyati);

- ijodiy qobiliyat-dunyoni nostandart ko'rish va fikrlash, har bir ishda kreativ yondashish.

Ta'lim olish jarayoni diqqat e'tiborni bir joyga to'plashni talab qiladi. U qiyinchilik bilan shakllanadi va yengil so'nadi. Tez yo'qoluvchi bir g'oyaning o'rniga ikkinchisi yuzaga keladi. Bu diqqatning patologiyasiga, faol diqqatning buzilishiga, diqqatning noixtiyoriy tebranishida o'z ifodasini topgan ortiqcha chalg'uvchanlikka olib keladi. Bunday parokandalikda bola o'z faoliyatini ko'ziga nima ko'rinsa shunga sarflab hech bir ishini oxiriga yetkaza olmaydi, o'z diqqatini o'rganish obyektiga jamlay olmaydi. Shaxsiylashtirilgan ta'limni amalga oshirishda, turli metodlardan foydalanish lozim, bunda ma'lumotni oddiy matn usulida emas balki, vizual yoki multimedia kabi turli xil vositalar orqali taqdim etish bolalarni diqqatini jamlashda yanada samara beradi.

O'quvchilarni o'quv ehtiyojlari asosida mavzuni kichik guruhlariga ajratish orqali maqsadli o'qitish va tengdoshlari bilan birgalikda hamkorlik qilish imkonini beradi. Bir maqsad va natija yo'lida birgalikda harakat qilishi o'quvchilarni yanada jiplashtirishga yordam beradi.

L.I.Umanskiy tomonidan kommunikativ tayyorgarlikning 3 ta yo'nalishi ajratib ko'rsatgan. Bular:

1. Intellektual kommunikativlik - bu shaxslararo bir-birini idrok etish va bir-birini tushunish jarayoni.

2. Hissiy kommunikativlik - bu shaxslararo aloqada his-tuyg'u va guruhda yuqori hissiy kayfiyatning mavjud bo'lishi.

3. Irodaviy kommunikativlik - bu guruhning qiyinchiliklarga chidamliligi, stresslarga qarshi tura olishi va ekstremal vaziyatlarda ishonchliligi

Ta'lim jarayonida alohida ta'limga ehtiyoji mavjud o'quvchilarning individual o'rganish tezligini ta'minlash uchun ularning harakatlarini rag'batlantirib borish kerak bunda, qo'shimcha qo'llab-quvvatlash ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishga yordam beradi.

O'quv dasturlarining moslashtirish orqali alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalar uchun innovatsion ta'lim metodikalari va assotsiativ vositalarning birgalikda kompleks yondashuvi asosida maktablarda inklyuziv ta'lim jarayonini samarali tashkil etish mumkin.

Ma'lumki, inklyuziv maktablarda o'qitilayotgan o'quvchilar kontingenti nafaqat ko'rish, eshitish balki psixik jarayonlar va shaxsiy sifatlarni shakllantirish darajasini sezilarli xima-xilligi bilan tavsiflanadi. Ular orasidagi nutq-harakat doirasi, buzilishlari, somatik kasalliklar keng tarqalgan. Har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda o'qitish metodikasi ishlab chiqish rivojlanish xaritasida belgilab qo'yilishi o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishida muhim samarali usul hisoblanadi.

Produktiv faoliyatni tahlil qilish metodi orqali o'quvchi faoliyati mahsuliga qarab ya'ni, bolalar chizgan rasmlar, applikasiya, qillish-yasash, turli o'yinchoqlar, yasagan narsalari, ular tomonidan yozilgan she'r va ertaklar kiradi. Bunda bolalarning o'z ixtiyorlariga ko'ra mustaqil bajargan faoliyat mahsuli alohida ahamiyatga ega. Masalan: bola rasmda aks ettirgan predmet bilan bolaning tasavvuri o'rtasidagi aloqani aniqlash mumkin.

Assotsiativ vositalar **inson ongida yangi bilimlarni mavjud bilimlar bilan bog'lashga yordam beradigan usullar yoki texnikalar** hisoblanadi. Bu vositalar **xotirani mustahkamlash, yangi tushunchalarni eslab qolish** uchun ishlatiladi. Bu vositalar ongda **ma'lumotlarni bog'lash, eslab qolish va tahlil qilish** jarayonini osonlashtirishga yordam beradi.

Xotira jarayoni idrok jarayonlari bilan chambarchas bog`liq. Xotira jarayonining samarali kechishida analizatorlar faoliyati alohida o`rin tutadi. Agar xotira faqat tashqi belgilarga tayansa (tashqi ko`rinish) uning samarasi juda yuqori bo`lmaydi. Esda olib qolish jarayonida ko`ruv bilan birga eshitishga tayanilsa uning samaradorligi kuchayadi, ya`ni qanchalik ko`p analizatorlari ishtirok etsa shuncha samarali bo`ladi. Materialni tushunib esda olib qolish eng yuqori natijani ko`rsatadi.[3,267]

Inklyuziv ta`lim-bu barcha bolalarning teng huquqli ta`lim olishini ta`minlaydigan ta`lim tizimi bo`lib, u o`quvchilarning jismoniy, aqliy, ijtimoiy farqliliklariga qaramasdan, ularni umumiy ta`lim muassasalarida birgalikda ijtimoiylashuvni ta`minlagan holda o`qitishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar va barcha uchun inson huquqlarini ta`minlashning muhim vositasi hisoblanadi. Ba`zi hollarda otalar va jamiyatdagi stereotiplar – ayrim nogironligi bo`lgan bolalarning umumiy maktablarga qo`shilishiga nisbatan salbiy munosabatni hosil qilishi mumkin, ammo, bola qanchalik tengdoshlari bilan birgalikda faoliyatni amalga oshirsa, undagi hatti-harakatlar, dunyoqarash o`zgaradi va bilim olishga yanada ko`proq qiziqishga ega bo`ladi .

Segragatsion ta`lim esa o`quvchilarni ayrim belgilariga ko`ra ajratilishidir. Bugungi kunda bu ta`lim turining bir nechta salbiy tomonlari mavjud. Inklyuziv ta`lim nafaqat nogironligi bo`lgan bolalar uchun, balki butun jamiyat uchun manfaatlidir. Chunki bu yondashuv insoniylik, bag`rikenglik va birdamlik kabi qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Samarali inklyuziv ta`lim tizimi – bu zamonaviy, barqaror va adolatli jamiyat qurishning poydevoridir. Shu sababli, inklyuziv ta`limni rivojlantirishda barcha tomonlarning hamkorligi, muvofiqlashtirilgan harakatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Alohida ta`limga ehtiyoji mavjud o`quvchilarning bilim olish qobiliyatini oshirish va ularning ijtimoiylashuvini ta`minlash uchun teng imkoniyatlar yaratish inklyuziv ta`limni rivojlantirish yo`lidagi muhim qadam hisoblanadi va bu uchun maktablarda har bir o`quvchiga erkin va qo`llab-quvvatlanadigan muhitni yaratish lozim.

Maktablarda alohida ta'limga ehtiyoji mavjud o'quvchilar uchun darsdan tashqari defektolog, tiflopedagog, surdopedagog kabi mutaxassislar muntazam aloqani o'rnatish orqali, pedagoglar bolaning aynan o'zi qiynalayotgan tomondan darsdan tashqari qo'shimcha yakka tartibda ishlash orqali korreksion mashg'ulotlar o'tiladi. Korreksiya bu bolalarda ruhiy va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini pedagogik usullar va tadbirlarning maxsus tizimi yordamida to'liq yoki qisman tuzatish

Sinfda inklyuzivlikni rivojlantirishning eng samarali strategiyalaridan biri bu shaxsiylashtirilgan o'qitishdir. Shaxsiylashtirilgan ta'lim - bu har bir o'quvchining individual ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyatlari inobatga olgan holda o'qitish jarayonini tashkil qilishdir. O'quvchilarning o'z tengdoshlari singari tushunishi va o'zlashtirishi uchun bir nechta o'qitish metodlarni tashkil qilish orqali o'qituvchilar barcha o'quvchilarni, ularning o'rganish uslublari va qobiliyatlaridan qat'iy nazar, o'quv dasturi bilan faol shug'ullanishlarini ta'minlashlari lozim.

Bundan tashqari bir nechta usul va vositalar mavjud bo'lib bular orqali inklyuziv maktablarda o'quvchilarning ijtimoiylashuvini ta'minlashda va yanada kengroq bilim egallashlariga yordam beradi.

- Maktablarda inklyuziv ta'limni tashkil etishda onlayn resurslar, audiokitoblar, interaktiv darsliklar o'quv jarayonini yengillashtiradi.
- O'qituvchilarni inklyuziv ta'lim metodikalariga o'rgatish uchun maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil qilish.
- Defektolog, logoped, psixolog kabi mutaxassislarni maktablarga jalb qilish yoki mavjudlarini qayta tayyorlash.
- O'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar, dars ishlanmalari ishlab chiqish.
- Infratuzilmani nogironligi bo'lgan o'quvchilar uchun moslashtirish (panduslar, liftlar, maxsus hojatxonalar).
- Texnologiyalardan foydalanish (maxsus kompyuterlar, interaktiv dasturlar).
- Har bir o'quvchi uchun Individual rivojlanish dasturi ishlab chiqish.
- Ta'lim jarayonida differensial va moslashtirilgan yondashuvlardan foydalanish.

- Baholash tizimini qayta ko'rib chiqish o'quvchining imkoniyatlariga mos ravishda baholash mezonlarini ishlab chiqish lozim.

- Ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb qilish, ularning farzandi bilan ishlash uslublari bo'yicha seminarlar o'tkazish.

- Maktabda turli tadbirlar, ochiq darslar, ko'rgazmalar tashkil etish orqali jamiyatda bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirish.

- Inklyuziv ta'lim sifatini baholash, muammolarni aniqlash va ularni hal qilish bo'yicha mexanizmlar ishlab chiqish.

- Diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik va bolalarda ijtimoiy ongni shakllantirish

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi

Har bir yoshlarimizni mustaqil bilim olishga o'rgatish, ularni muntazam ravishda intellektual salohiyatini oshirish zarur, bu o'rinda biz boshlang'ich sinflardan o'quvchilardagi bor imkoniyatlarni ishga solib, ularning ustida ishlab, layoqatni qobiliyat darajasiga olib chiqishimiz lozim, bunday uzviy bog'liqlikdagi pedagogik jarayonda malakali pedagoglarning o'rnini katta. Inklyuziv ta'lim nogironligi bo'lgan yoki o'ziga xos ehtiyojlarga ega bolalarning sog'lom tengdoshlar bilan birga, ularning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, bir xil ta'lim muassasalarida o'qishlarini ta'minlash tizimidir.

Qobiliyat insonning shunday psixologik xususiyatdirki, bilim, ko'nikma, malakalarini egallash shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki yoshlarni ma'naviy-intellektual rag'batlantirishning o'rnini katta. Intellektni rivojlantirish maqsadida yosh avlodga pedagogik ta'sir ko'rsatish intellektual ta'lim deb ataladi. Bu tizimli va maqsadli jarayon bo'lib, keksa avlodlar tomonidan to'plangan, ko'nikma va

malakalar, bilimlar, me'yor va qoidalar hamda baholashlarda namoyon bo'lgan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirishni o'z ichiga oladi.

O'qituvchi bilimdon, o'z sohasining mutaxassisi va pedagogik kompetentlikka ega bo'lishi bilan bir qatorda u ta'limning ilmiylik prinsipi asosida doimo ish tutishi kerak. O'qitishning ilmiylik tamoyili –ta'lim jarayonida o'quvchilarni hozirgi zamon texnika fan taraqqiyoti darajasidagi ilmiy bilimlar bilan qurollantirish, ayniqsa, yoshlarni ilmiy tadqiqot usullari bilan tanishtirishga qaratiladi. Bugungi kun pedagogi shularni inobatga olgan holda zamon bilan hamnafas bo'lib, o'z fan doirasi qatorida ilmiy zamonaviy tajribalardan foydalanib, dars jarayoni faqatgina an'anaviy dars shaklida tashkil etilmasligi ilmiy jamoatchilik yutuqlaridan foydalanishi zarur. O'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, ularning intellektual salohiyatini oshirishda o'qituvchi doimo izlanishda bo'lishi lozim. Pedagoglarimiz diagnostik test o'tkazish, iqtidorli bolalarni o'qitish metodikasi, iqtidorli bolalarni o'qitadigan o'qituvchilarni tayyorlash bo'yicha katta tajribaga ega bo'lishlari lozim.

Ijtimoiy ongni shakllantirish ham inklyuziv ta'limga ijobiy munosabatni uyg'otishga yordam beradi. Buning uchun esa ommaviy axborot vositalarida targ'ibot ishlari olib borilishi va turli ibratli videoroliklarni namoyish etib borish kerak. Bunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish lozim.

Bugungi yoshlar yangicha fikrlashga va zamon bilan hamnafas bo'lishga intilmoqda va buning zamiri esa intellektga borib taqaladi. Bu davlat va jamiyat uchun o'zining mustaqil fikriga ega, ilmiy salohiyatli har qanday buzg'unchi hurujlardan o'zini himoya qila oladigan elita qatlamni yaratadi.

ADABIYOTLAR.

1. Sh.Mirziyoyev “Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik –milliy go'yamizning poydevoridir” T- 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4860-sonli qarori, 2020-yil.
3. David G. Myers. Psychology, 2010 by Worth Publishers

4. E.G` . G`oziyev ` . Umumiy psixologiya: darslik. 1, 2- kitob. T, 2002
5. F.U.Qodirova,D.A.Pulatova “Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika” darslik Chirchiq 2022-yil
6. UNESCO. Inclusive Education: Guidelines for Policy Makers, 2009.
7. M.Mutalipova , Xadjayev B“ Qiyosiy pedagogika” T- 2015 darslik 115- bet
8. T.N.Qori Niyoziy nomidagi O`zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti “Fanlar chuqurlashtirilib o`qitiladigan sinflarda ta’limni tashkil etish texnologiyasi”